

Rahbar kadrlarni tanlash va malakasini oshirishning huquqiy mexanizmlari

JDPI “Falsafa, tarbiya va huquq ta’limi” kafedrası stajyor-o’qituvchisi
M.Aliyev

Annotatsiya: mazkur maqolada mamlakatimizda kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish hamda uning me’yoriy-huquqiy asoslari bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье описывается подготовка и переподготовка кадров в нашей стране, а также ее правовая база.

Annotation: This article describes the training and retraining of personnel in our country, as well as its legal framework.

Kalit so’zlar: rahbar, istiqbolli rahbar, huquqiy mexanizmlar, normativ-huquqiy baza, amaliyot

Ключевые слова: лидер, будущий лидер, правовые механизмы, нормативно-правовая база, практика

Keywords: leader, prospective leader, legal mechanisms, normative-legal base, practice

Rahbar kim? Istiqbolli boshqaruv kadrlar kim? Hozirgi zamon rahbar qiyofasi qanaqa va unga qo‘yiladigan hayotiy talablar qanday bo‘lishi lozim? Mana shunday murakkab savollarga javob topish va unga yechim berish muhim ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi. Tabiiyki, tajribali rahbarlar va malakali kadrlar mamlakat taraqqiyotining kafolati va ertangi kunining umidi, o‘z kasbining yetuk mutaxassisi va xalqning dard-u tashvishi bilan yashaydigan bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda, shiddat bilan o‘zgarayotgan bir davrda yashar ekanmiz, respu-blika, viloyat, tuman(shahar) va boshqa kichik bo‘g‘inlarda o‘z kasbining jonkuyari, vatanparvar rahbarlarga ehtiyoj juda katta bo‘lib kelmoqda. Shu o‘rinda rahbarlarni tanlab olish hamda joy-joyiga qo‘yish birmuncha murakkablik ham tug‘diradi. “Biz oldimizga qanday muhim vazifa qo‘ymaylik, qanday hayotiy

muammolarni yechish tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, yuqorida aytganimizdek, baribir kadrlarga borib taqala-veradi"[1]

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'z ishinig ustasi, vatanparvar, mustaqil, tartib-intizomli, tashabbuskor, mehnatsevar, tizimidagi xodimlari bilan samarali muloqotni yo'lga qo'ya olgan, ularni doim o'z ustida ishlab turishiga imkoniyat yaratgan, ishida innovatsion, kreativ g'oyalar bilan maydonga chiqa oladigan rahbarlar bo'lsagina biz orzu qilgan Ozod va obod vatan erkin va farovon hayotni barpo etishimiz mumkin. Agarki, minglab topshiriq berilmasin, huquqiy-intizomiy chora ko'rilmasin, rahbarning o'zida rahbarlik salohiyati bo'lmasa bu qiyin masaladir. Bunday salbiy oqibatlarni bartaraf etishni hozirdan boshlamas ekanmiz, ertangi kunda eski rahbarlar dunyoqarashidan tarbiyalangan kichik rahbarlar yetishib chiqaveradi.

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan reformatsion o'zgarishlarda shu narsa ayon bo'lyaptiki, bugun qaysidir tizimning rahbari o'z ishiga jiddiy yondashmasa, mas'uliyatsizlik bilan qarasa, yangilik qilmay, eskicha tafakkur tarzi bilan ish yuritsa, bunday rahbarlar bilan ishlash kerak emasligini hayotni o'zi ko'rsatayapti. Bu haqida yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha fikrni ta'kidlaydi:

“Hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Bu o'rinda asosiy muammo, mening nazarimda, quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ayrim idoralar va ularning rahbarlari real hayotdan va xalq ehtiyojlaridan ma'lum darajada uzilib qolmoqda.

Ikkinchidan, tarmoq va hududlarni rivojlantirish konsepsiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda yuzaki yondashuvga yo'l qo'yilmoqda.

Va nihoyat, uchinchi asosiy kamchilik - ko'pchilik rahbarlarning murakkab muammolarni kabinetdan chiqmasdan, iqtisodiyot tarmoqlari, har bir korxonadagi, shahar va tumanlardagi, ayniqsa, qishloq joylaridagi ishlar qanday ahvolda ekanini chuqur o'rganmasdan hal etishga odatlanib qolgani bilan bog'liq” [2]

Darhaqiqat, bugun islohotlarning qay darajada amalga oshishi rahbarlarning dunyoqarashiga, halol va pok, tadbirkor va tashabbuskor bo'lishiga bog'liqdir. Bugungi kun rahbarlarini qayta malakasini oshirish, ularni tanlash, yangi shakllanib kelayotgan yosh kadrlarga rahbarlik bilimlarini o'rgatish maqsadida ko'plab huquqiy normalar ishlab chiqilmoqda va amalga tatbiq etilmoqda. Misol uchun: 2017-yil 14-avgustda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akad-emiya qoshidagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" [3] PQ-3206-sonli hujjat qabul qilindi. Unga muvofiq 4 oylik qayta tayyorlov kurslariga tinglovchilar qabul qilinib, ularga muammolarni tahlil qila olish, atroflicha yondashish, rahbarlik, boshqaruv san'ati ilmlaridan tahsil oladilar hamda davlat boshqaruv organlariga zaxira kadr si-fatida kiritilib, amaldagi lavozimlaridan yuqori lavozimlarga tavsiya etilmoqda. 2018-yil 6-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasining hududiy filiallarini tashkil etish to'g'risidagi PQ-3901 sonli qarori qabul qilindi. [4] Qaror joylarda boshqaruv kadrlar malakasini oshirish-ning sifatini yaxshilash, zamonaviy sharoitlarda boshqaruv kadrlarining kasbiy bilim va saviyasiga qo'yilayotgan talablarni hisobga olgan holda, joylarda davlat va jamiyat boshqaruvi sohasidagi rahbar kadrlarning malaksini oshirish orqali ularni qayta tayyorlash va zamoanviy bilimlar bilan qurollantirib, rahbarlik ko'nikmalarini rivojlantirishni o'zida mujassamlashtiradi. 2018-yil 30-may kuni "Istiqbolli boshqaruv kadrlarni tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident qarori ham imzolandi. Bunda istiqbolli boshqaruv kadrlarni tizimli asosda tanlab olish, davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, mahalliy ijro etu-chi hokimiyat organlari, boshqa davlat organlari va tashkilotlari tizimida boshqaruv kadrlarni kasbiy malakasini uzliksiz ravishda oshirib borish maqsad etib qo'yilgan.

Shuningdek, 2017-yil 12-dekabrdagi Vazirlar Mahkamasining "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining tuman va shahrlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha hudud rahbarlari faoliyatini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida" [5] 973-sonli qarori ham qabul qilingan. Qarorda

hududlarga biriktirilgan rahbarlarga ular zimmasiga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring olib borishni, hududlarning rivojlanish ah-volidagi real o'zgarishlardan va belgilangan mezonlardan kelib chiqib, ular faoliyati-ni xolisona baholash tizmini yo'lga qo'yishni nazarda tutadi. Rahbarlarning malakasi-ni oshirish ular faoliyatini monitoring qilish bo'yicha huquqiy normalarni ko'rib chiqdik. Lekin ayrim sabablarga ko'ra, tasodifan mas'ul rahbarlik lavozimi vakant bo'lganda buning o'rnini qanday to'ldirish kerak degan jiddiy masalani ham unut-masligimiz kerak. Shu o'rinda kadrlar rotatsiyasi, qo'nimsizligi bugunning dolzarb muammosi hamdir. Bu masalaga quyidagi yechim berishimiz mumkin:

- viloyatlarda "Kadrlar boshqaruvi va monitoring markazini" tashkil etish. Bunda faqat rahbar kadrlar ro'yhati shakllantirilib, ularning ish faoliyati, hozirgi kunda qanday ish bilan mashg'ul, muqaddam rahbarlik lavozimida ishlagan, hozirda esa ishsiz bo'lgan, katta hayotiy, ish tajribasiga ega bo'lgan rahbarlarni huddudagi bo'sh ish o'rnidan kelib chiqib nomzodni tavsiya etadi. Tabiiyki, viloyatlarda Bandlik boshqarmalari ham bor. Bu boshqarma aholini ish bilan ta'minlashni nazarda tutsa, Markaz esa rahbar kadrlar masalasi bilan shug'ullanadi.

- Har qanday tizim rahbarlarini xorijda stajirovka o'tash yoki xorijiy boshqaruv ta'lim muassasalarida o'qib kelish amaliyotini joriy qilish.

Xulosa qilib aytganda, rahbarlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, boshqaruvda kuchli rahbar-xodimlarni yetkazib berish tizimining, avvalo, huquqiy-tashkiliy mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ularning kasbiy mahorati, boshqaruvda ma'naviy asoslarga tayanib ish ko'rishi uchun hamda malaka mahoratini oshirishda davlatning kadrlar siyosati borasidagi ishlarni yana bir bosqichga ko'tarish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, davlat kadrlar borasidagi siyosatiga labbay deb javob bera oladigan rahbarlar esa o'zlarini ustida tinimsiz ishlashi, ishida yangiliklar qilib, mamlakat imi-jini jahonga olib chiqishdagi ma'suliyatni teran anglab yetsa, biz qurmoqchi bo'lgan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo eta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili” T: “O’zbekiston”, 1995, 17-bet
2. Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak” T: “O’zbekiston”, 2017, 10-bet
3. lex.uz
4. <http://lex.uz/docs/3853301>
5. <http://lex.uz/docs/3451870>